



**O'ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK
AKADEMIYASI**

XALQARO MUNOSABATLAR KAFEDRASI

YANGI MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASINING SIYOSIY-IQTISODIY VA MADANIY-GUMANITAR JIHATLARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TO'PLAMI

 2026-yil, 28-aprel



→ Toshkent – 2026 ←

UO'K: 327 | 5-15+7

KBK: 66/4 | 5+7

Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlarini: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami: Toshkent, 2026-yil 28-aprel / Mas'ul muharrir: PhD, dots. B.Berdiyev. – T.: O'zXIA, 2026. – 389 b.

Mas'ul muharrir:

***B. Berdiyev** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Tahrir hay'ati:

***F.Juraqulov** – siyosiy fanlar doktori, professor*

***F.Qo'ysinova** – siyosiy fanlar doktori, dotsent*

***M. Nazirov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

***Sh. Akmalov** – siyosiy fanlar nomzodi, dotsent*

***N. Qalqanov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

***J. Akramov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.*

***M. Xurramov** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.*

***J. Sobirov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Mazkur to'plamga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug'iga binoan O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida 2026-yil 28-aprel kuni "Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlarini" mavzusida o'tkazilgan an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari kiritilgan.

To'plam O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Ilmiy, o'quv-uslubiy kengashining 2026-yil 25-maydagi 9-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To'plamga kiritilgan materiallar mazmuniga mualliflar mas'uldirlar.

MUQADDIMA

Xalqaro munosabatlarning tobora murakkablashib borishi sharoitida Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish orqali umumiy taraqqiyot va farovonlikni ta'minlashning ahamiyati ortib bormoqda.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshiqo'shnichilik muhitini yaratish yo'lida olib borayotgan siyosati, uzoq yillar davomida aka-uka, og'a-ini sifatida yashab kelayotgan qardosh va qondosh xalqlar o'rtasida hamkorlik jarayonlari tobora rivojlanmoqda. To'siqlar olib tashlanib, savdo-iqtisodiy aloqalar kengayib bormoqda, chegaraoldi hududlarda o'zaro bordi-keldi munosabatlari jadallashmoqda, mintaqada o'zaro do'stlik ruhidagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda kechayotgan mintaqaviy hamkorlik jarayonlari xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 91-maqsadi: "Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish" doirasida belgilangan quyidagi ustuvor masalalarni ilmiy-amaliy muhokama qilish uchun extiyoj mavjud:

- Markaziy Osiyoda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanish bo'yicha tashqi ishlar vazirlari doirasida doimiy muloqotlarni tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik bo'yicha yuqori darajadagi maslahatlashuv jarayonini jadallashtirish;

- Yetakchi xorijiy davlatlar ishtirokidagi "Markaziy Osiyo plyus" formatidagi sammitlarda faol ishtirok etish, ularning yakuni bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish.

Shu bois 2026-yilning 28-aprel kuni O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Xalqaro munosabatlar" kafedrasidan O'zbekistonda SHHT Xalq diplomatiyasi markazi bilan hamkorlikda "Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlari" mavzusida an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Anjumanda Markaziy Osiyoga doir muammolar bilan shug'ullanadigan respublika va xorijlik olimlar, ekspertlar, mutaxassislar, tadqiqotchilar, iqtidorli talabalar ishtirok etdi. Anjumanning yalpi majlisida xalqaro munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan bugungi sharoitlarda Markaziy Osiyoda integratsiya va mintaqaviy

hamkorlikni rivojlantirishning geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va etno-lingvistik jihatlariga doir masalalar, shuningdek, xalqaro ilmiy jamoatchilik diqqat markazida bo'lib qolayotgan masalalarning turli aspektlari va istiqboldagi ehtimoliy tendensiyalari muhokama qilindi.

Kichik guruhlarda davom etgan muhokamalarda konferensiya ishtirokchilari quyidagi sho'balarda fikr va mulohazalar almashdilar:

1. Markaziy Osiyoda mintaqaviylashuvning zamonaviy tendensiyalari: siyosiy-iqtisodiy aspektlar;
2. Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining madaniy-gumanitar masalalari;
3. Markaziy Osiyoda zamonaviy davlatlarchilik rivojining ijtimoiy-tarixiy omillari;
4. Markaziy Osiyo davlatlarining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi: muammo va istiqbollari;
5. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalari.

Mazkur anjumanda ham shaxsan, ham onlayn hozir bo'lgan olimlarning ilmiy ma'ruzalari va xabarlarida Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik masalalariga doir ham nazariy konsepsiyalarni chuqurlashtirish, ham amaliyotda kuzatilayotgan yangi tendensiyalarni ilmiy idrok etishga yordam beradigan g'oyalar va tahlillar o'z ifodasini topdi. Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Markaziy Osiyoda do'stlik, tenglik, hamkorlik, mavjud muammolarni birgalikda hal qilish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni, farovonlik va bunyodkorlikni ta'minlash borasida ilgari surilgan tashabbus va konseptual g'oyalar mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazilishiga xizmat qiladi.

"Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar jihatlari" mavzusida o'tkazilgan an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamidagi materiallar mazmuni va ma'lumotlar aniqligiga mualliflar mas'uldir.

KIRISH SO'ZI

Muzaffar Kamilov

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektori

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, qadrlil olimlar va aziz mehmonlar!

Sizlarni bugungi nufuzli xalqaro konferensiyada ko'rib turganimdan g'oyat mamnunman. O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida ilm-fan va tahlil sohasida faoliyat yuritayotgan, mintaqaviy va global jarayonlarga befarq bo'lmagan yetuk mutaxassislarning bir maydonda jam bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda qo'shni mamlakatlardan tashrif buyurgan aziz mehmonlarimizni samimiy qutlashga ijozat bergaysiz.

Sizlarning bilimingiz, tajribangiz va salohiyatingiz bugungi muhokamalar mazmunini boyitishi, yangi g'oyalar va yondashuvlar shakllanishiga xizmat qilishiga ishonchim komil. Barchangizni ushbu ilmiy muloqot maydonida samimiy qutlayman va samarali ishtirok tilayman.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugun shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro munosabatlar tizimi davlatlar oldiga yangidan-yangi mushkul vazifalarni qo'ymoqda. Dunyoning turli nuqtalarida geosiyosiy qarama-qarshiliklar kuchayib, global beqarorlik ortib borayotgan bir paytda mintaqaviy integratsiya jarayonlari yangi mazmun kasb etmoqda. Ayniqsa, davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash, siyosiy muvofiqlashuvni chuqurlashtirish va institutsional hamkorlikni rivojlantirish har qachongidan dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi aynan shunday transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. So'nggi yillarda davlatlar o'rtasida yangi muloqot muhiti shakllanib, o'zaro ishonch sezilarli darajada mustahkamlandi. 2018-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari ushbu jarayonning muhim institutsional poydevoriga aylandi.

O'tgan 2025-yilda mazkur formatning "Markaziy Osiyo hamjamiyati"ga aylantirilishi esa mintaqaviy integratsiyaning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu faqat tashkiliy shakldagi o'zgarish emas, balki mintaqaning o'zini xalqaro munosabatlar tizimida mustaqil va faol subyekt sifatida namoyon eta boshlaganini anglatadi. Ayniqsa, Ozarbayjonning ushbu hamjamiyatga to'laqonli a'zo sifatida qo'shilishi Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o'rtasidagi strategik bog'liqlikni yanada kuchaytirdi.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, Markaziy Osiyo qadimdan sivilizatsiyalar va savdo yo'llari chorrahasida joylashgan hudud hisoblanadi.

Bugungi kunda mintaqqa ana shu geostrategik o'rnini qayta tiklash bosqichiga kirdi. Endi u tashqi kuchlar ta'siridagi passiv makon emas, balki xalqaro siyosatda faol ishtirok etayotgan muhim mintaqaviy markazga aylanmoqda.

Albatta, bu jarayonlar muammolarsiz kechmayapti. Mintaqamiz atrofida notinch muhit, infratuzilmaviy cheklovlar va ayrim geosiyosiy xatarlar hanuz saqlanib qolmoqda. Shunga qaramay integratsiya jarayonlari nafaqat siyosiy muloqot, balki aniq iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalar orqali mustahkamlanmoqda. Xususan, Transkaspiy yo'nalishlari, "O'rta yo'lak" kabi transport-logistika tashabbuslari mintaqaning geoiqtisodiy ahamiyatini oshirib, uni Sharq va G'arb o'rtasidagi muhim ko'priikka aylantirmoqda.

Hurmatli ishtirokchilar!

Bugungi anjuman nafaqat fikr almashish maydoni, balki turli mamlakatlar va ilmiy maktablar vakillari o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yish imkoniyatidir. Xalqaro konferensiya formati bizdan ochiqlik, tanqidiy fikrlash va o'zaro hurmat asosida muloqot olib borishni talab etadi.

Konferensiya ishida O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi, O'zbekiston musulmonlari idorasi, O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining xalq diplomatiyasi markazi, Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti (Qozog'iston), Akademik Bobojon G'ofurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti (Tojikiston), Qirg'iziston musulmonlari idorasi huzuridagi Ilmiy-tadqiqot instituti (Qirg'iziston), Markaziy Osiyo xalqaro instituti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent Kimyo-texnologiya instituti va boshqa muassasalarning qariyb 40 nafar vakillari ishtirok etmoqda.

An'anaviy tarzda tashkil etilayotgan Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya masalalariga bag'ishlangan mazkur anjumanga akademik doiralarda ilmiy qiziqish barqaror ravishda yuqori. Buni konferensiya to'plamiga kelib tushgan 100 dan ortiq maqola va tezis tasdiqlab turibdi.

Ishonchim komilki, bugungi muhokamalar Yangi Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari rivoji uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilib, mintaqaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish borasida aniq takliflar ishlab chiqilishiga salmoqli hissa qo'shadi. Anjumanda tinglanadigan ilmiy ma'ruzalar va fikr almashuvlar ham konferensiya ishtirokchilari, ham keng jamoatchilik uchun dolzarb va foydali bo'ladi, degan umiddamiz.

Yana bir bor barchangizni tashrifingiz bilan qutlab, anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman!

E'tiboringiz uchun tashakkur!

MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY HAMKORLIKNING NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Javoxirxon Sobirov

*Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsiya va hamkorlik jarayonlarining nazariy asoslari hamda zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtisodiy integratsiyaning mumtoz bosqichlari funksionalizm va neofunksionalizm nazariyalari prizmasi orqali mintaqaviy aloqalar o'rganilgan. Ayniqsa, 2016-yildan keyingi davrda O'zbekiston tashqi siyosatidagi tub burilishlar, mintaqaviy xavfsizlik, transport-logistika va savdo-iqtisodiy hamkorlikning yangi dinamikasi tahlil markazida turadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mintaqada loyihalarga asoslangan "yumshoq regionalizm" modeli shakllanmoqda.

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, iqtisodiy integratsiya, Balassa nazariyasi, funksionalizm, O'zbekiston tashqi siyosati, transport koridorlari, yumshoq regionalizm, xavfsizlik.*

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and contemporary trends of integration and cooperation processes in the Central Asian region. The study examines regional interactions through the prism of classical stages of economic integration, as well as the theories of functionalism and neofunctionalism. Particular attention is given to the period after 2016, focusing on the fundamental shifts in the foreign policy of Uzbekistan, along with the new dynamics of regional security, transport-logistics, and trade-economic cooperation. The findings indicate that a project-based model of "soft regionalism" is emerging in the region.

Keywords: *Central Asia, economic integration, Balassa theory, functionalism, Uzbekistan's foreign policy, transport corridors, soft regionalism, security*

Kirish

Markaziy Osiyo hududi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni o'z ichiga olgan bo'lib, Yevroosiyo qit'asining markazida joylashgan strategik muhim mintaqaga hisoblanadi. Ushbu hudud tarixan Sharq va G'arbni bog'lovchi muhim ko'priklarni vazifasini bajargan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li

davrida Markaziy Osiyo xalqaro savdo, madaniy almashinuv va sivilizatsiyalararo muloqotning markaziga aylangan. Shu sababli mintaqa uzoq asrlar davomida turli imperiyalar va geosiyosiy kuchlar manfaatlari to'qnashgan hudud sifatida shakllangan.

XX asrning oxiriga kelib, Sovet Ittifoqining parchalanishi Markaziy Osiyo tarixida tub burilish yasadi. Mustaqillikka erishgan davlatlar oldida yangi davlatchilikni shakllantirish, milliy iqtisodiyotlarni barpo etish va xalqaro maydonda o'z o'rnini belgilash kabi murakkab vazifalar paydo bo'ldi. Shu davrda mintaqa davlatlari, bir tomondan, o'z suverenitetini mustahkamlashga intilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, sobiq yagona iqtisodiy tizimning parchalanishi natijasida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishga majbur bo'ldi. Dastlabki yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida integratsiya va yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan bir qator tashabbuslar ilgari surildi. Biroq bu jarayonlar kutilgan darajada rivojlanmadi. Bunga bir qator omillar sabab bo'ldi. Avvalo, davlatlar o'rtasidagi chegaraviy muammolar va hududiy nizolar ishonch muhitining shakllanishiga to'sqinlik qildi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi hududidagi murakkab chegaralar va anklavlar masalasi mintaqaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Suv-energetika resurslaridan foydalanish masalalari ham davlatlar o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklarni yuzaga keltirdi. Yuqori oqimda joylashgan davlatlar (Qirg'iziston va Tojikiston) gidroenergetika salohiyatidan foydalanishga intilgan bo'lsa, pastki oqimdagi davlatlar (O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston) suv resurslarining qishloq xo'jaligi uchun yetarli darajada ta'minlanishini ustuvor deb hisoblagan. Bu esa mintaqada muvozanatli suv siyosatini ishlab chiqishni murakkablashtirdi.

Asosiy qism

Markaziy Osiyo geosiyosiy jihatdan muhim hudud bo'lgani sababli, bu yerda yirik davlatlar va tashqi kuchlarning manfaatlari kesishadi. Rossiya, Xitoy, AQSH va Yevropa Ittifoqi kabi global aktorlar mintaqada o'z ta'sirini kuchaytirishga intilmoqda. Bu esa mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ijobiy va salbiy jihatdan ta'sir ko'rsatib, ba'zan davlatlar o'rtasida raqobat elementlarini kuchaytiradi. So'nggi yillarda Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichi kuzatilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston tashqi siyosatidagi ochiqlik va yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga asoslangan yondashuv mintaqada ishonch muhitining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Davlatlar o'rtasidagi siyosiy muloqotning faollashuvi, savdo-iqtisodiy aloqalarning

kengayishi va qo'shma infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi mintaqaviy integratsiya uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Globallashuv sharoitida Markaziy Osiyoning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Mintaqa xalqaro transport yo'laklari, energetika loyihalari va logistika tizimlari orqali global iqtisodiy tizimga faol integratsiyalashib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish nafaqat alohida davlatlar, balki butun mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik masalasi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur maqola aynan shu jarayonlarning nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Bugungi globallashuv sharoitida mintaqaviy hamkorlik nafaqat iqtisodiy ehtiyoj, balki xavfsizlik va barqaror taraqqiyotning kafolatiga aylandi. Ushbu maqolaning maqsadi mintaqaviy hamkorlikning nazariy modellarini Markaziy Osiyo voqeligiga tatbiq etish, mavjud to'siqlarni aniqlash va zamonaviy bosqichdagi hamkorlik istiqbollari ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Markaziy Osiyodagi hamkorlik jarayonlarini tushunish uchun xalqaro munosabatlarda keng qo'llaniladigan bir necha nazariy yondashuvlarni ko'rib chiqish lozim.

Bela Balassa iqtisodiy integratsiyani besh bosqichga bo'ladi: erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoq va to'liq siyosiy integratsiya. Markaziy Osiyo davlatlari bugungi kunda asosan birinchi va qisman ikkinchi bosqich oralig'ida turibdi. Nazariy jihatdan mintaqa hali "ijobiy integratsiya" (supranatsional institutlar yaratish) darajasiga yetmagan, aksincha, "salbiy integratsiya" (savdodagi to'siqlarni olib tashlash) bosqichida murakkab jarayonlarni boshidan kechirmoqda.

Yan Tinbergen iqtisodiy samaradorligi yuqori, biroq siyosiy jihatdan kamroq ziddiyatli sohalarda (transport, bojxona tartiblari) hamkorlik qilishni taklif etadi. Markaziy Osiyoda bu model transport koridorlarini rivojlantirish orqali namoyon bo'lmoqda. Siyosiy integratsiyadan ko'ra, iqtisodiy foydani ko'zlovchi bu yondashuv mintaqa uchun eng real yo'l bo'lib chiqdi.

Ernst Haasning nazariyasiga ko'ra, bir sohadagi (masalan, temir yo'l qurilishi) hamkorlik muqarrar ravishda boshqa sohalarda (bojxona uyg'unlashuvi, viza tartiblari) ham aloqalarni kuchaytiradi. O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida chegara muammolarining hal etilishi savdo va turizmning keskin oshishiga olib kelgani bunga yorqin misoldir.

2016-yilda O'zbekistonda siyosiy o'zgarishlar mintaqaviy hamkorlikda yangi davrni boshlab berdi. Avvalgi "mudofaa xarakteridagi o'z-o'zini

ta'minlash" siyosatidan voz kechilib, ochiqlik va pragmatizm tamoyili asos qilib olindi. O'zbekistonning mintaqaviy siyosati asosan "iqtisodiy ratsionallik" va "funktional hamkorlik"ka yo'naltirilganini ko'rish mumkin.

Uzoq yillar davomida mintaqaviy hamkorlikka eng katta to'siq bo'lgan chegara va suv masalalarida "muzlar eridi". Chegaralar: O'zbekiston-Qirg'iziston va O'zbekiston-Tojikiston chegaralaridagi nazorat punktlari (masalan, "Do'stlik" punkti) qayta ochildi. 2021-yilda Qirg'iziston, 2023-yilda Qozog'iston bilan chegaralarni delimitatsiya qilish bo'yicha tarixiy bitimlar imzolandi. Suv resurslari: Suv muammosini "casus belli" (urush sababi) sifatida ko'rishdan voz kechilib, birgalikda boshqarish modeliga o'tildi. Kambarota 1 va Rog'un GES qurilishlari bo'yicha O'zbekistonning pozitsiyasi ijobiy tomonga o'zgardi.

Markaziy Osiyo davlatlari Yevropa Ittifoqi kabi qat'iy institutlarga asoslangan integratsiyadan ko'ra, "yumshoq regionalizm" formatini afzal ko'rmoqdalar. Bu model quyidagilar bilan tavsiflanadi: Suverenitetni to'liq saqlab qolgan holda umumiy manfaatlar yo'lida birlashish, institutlardan ko'ra muloqot maydonlariga (Maslahat uchrashuvlari) tayanish, majburlovchi emas, ixtiyoriy hamkorlik asosida ish yuritish. 2018-yilda Ostona shahrida boshlangan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mintaqada tashqi vositachilarsiz muloqot qilish madaniyatini shakllantirdi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun dengizga chiqish imkoniyati yo'qligi uzoq vaqt "geografik la'nat" deb qaralgan. Zamonaviy yondashuv esa mintaqani Yevroosiyoning quruqlikdagi ko'prigiga aylantirishni nazarda tutadi. BRI (Bir makon, bir yo'l): Xitoyning bu tashabbusi mintaqada infratuzilmasini modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy temir yo'li: Bu loyiha mintaqaning tranzit salohiyatini tubdan o'zgartiradi. Trans-Afg'on koridori: Termiz-Mozori-Sharif-Kobul-Peshovar yo'li orqali Janubiy Osiyo portlariga chiqish strategik vazifaga aylandi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada ichidagi savdo aylanmasi 2018-2022-yillarda 73 foizga oshgan bo'lsa-da, tranzit xarajatlarining yuqoriligi hamon asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi yirik global kuchlarning manfaatlar markazida qolmoqda. Tadqiqot natijasida mintaqadagi hamkorlikka ta'sir etuvchi uchta asosiy "siyosiy ratsionallik" ajratildi: Rossiya YOII va KXSHT orqali iqtisodiy va harbiy ta'sirni saqlab qolish. Bu "yopiq regionalizm" xususiyatiga ega bo'lib, mintaqada davlatlarining boshqa bloklar bilan aloqalarini cheklashi mumkin. Xitoy BRI doirasida loyihaga yo'naltirilgan, institutlarsiz "ochiq regionalizm". Xitoy asosan energetika va infratuzilma orqali mintaqani o'z iqtisodiyotiga bog'lashni

ko'zlaydi. G'arb (AQSH va YI) demokratik institutlarni rivojlantirish, inson huquqlari va mintaqaning Rossiya/Xitoyga qaramligini kamaytirishga qaratilgan ochiq muloqot formatlari("C5+1")ni rivojlantirishga intiladi. Ushbu raqobat mintaqada davlatlari uchun ham imkoniyat (diversifikatsiya), ham xavf (geosiyosiy bosim) tug'diradi.

Nazariy jihatdan integratsiyaning muvaffaqiyati umumiy qadriyatlar va identifikatsiyaga bog'liq. So'nggi yillarda ilmiy iste'molga "Markaziy Osiyo ruhi" tushunchasi kirdi. Bu tushuncha mintaqada davlatlarining umumiy tarixi, dini va madaniyatiga asoslangan holda birgalikda harakat qilish irodasini anglatadi. Biroq, "tor millatchilik" va iqtisodiy rivojlanish darajasidagi nomutanosiblik (masalan, Qozog'istonning yuqori YIM) hanuzgacha to'liq birdamlikka xalaqit bermoqda.

Xulosa

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik yangi sifat bosqichiga ko'tarilganini tasdiqlaydi. Mintaqaviy integratsiya endi shunchaki "siyosiy shior" emas, balki iqtisodiy zaruriyatga aylandi. Markaziy Osiyo Bela Balassaning klassik iqtisodiy ittifoq modelidan ko'ra, loyihaga asoslangan, ko'p vektorli va moslashuvchan "yumshoq regionalizm" modelini rivojlantirmoqda. O'zbekistonning o'rni: O'zbekiston 2016-yildan keyin mintaqaviy integratsiyaning asosiy katalizatori va muammolarni hal qiluvchi subyektiga aylandi.

Mintaqaviy xavfsizlik endi faqat milliy chegaralar doirasida emas, balki Afg'onistonni ham o'z ichiga olgan umumiy "xavfsizlik kamari" tushunchasi orqali ta'minlanmoqda. BRI, CAREC va Trans-Afg'on loyihalari mintaqaning qit'alararo tranzit markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlamoqda. Markaziy Osiyo o'zining geosiyosiy taqdirini tashqi kuchlar irodasidan mintaqaviy davlatlar irodasiga o'tkazish jarayonini boshdan kechirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Agabaev, S. (2025). The development of regionalism and political pluralism in Central Asia. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 44, 25-31.
2. Boboqulova, M. G. (2025). The current state of regional integration in Central Asian countries: Analyses and challenges. International Journal of Political Sciences and Economics, 7(10), 97-100.
3. Can, N. (2025). Contending political rationalities of Central Asian regionalism. Central Asia and the Caucasus, 26(1), 102-116.

4. Kakhkharov, J. (2007). Regional cooperation in Central Asia: Viewpoint from Uzbekistan. Munich Personal RePEc Archive (MPRA), Paper No. 64130.
5. Khan, S. A. (2025). Trans-regional integration and connectivity in Central Asia: Strategies of Russia, China and European Union. *Economic Diplomacy*, 1(1), 61-74.
6. Kobilov, F. (2025). From geopolitical pendulum to regional player: Uzbekistan's regional foreign policy following the leadership change in 2016. *Central Asian Survey*, 45(1), 1-21.
7. Libman, A., & Vinokurov, E. (2010). Is it really different? Patterns of regionalization in the post-Soviet Central Asia. Munich Personal RePEc Archive (MPRA), Paper No. 21062.
8. Linn, J. F. (2012). Central Asian regional integration and cooperation: Reality or mirage? *EDB Eurasian Integration Yearbook 2012*, 96–117.
9. Meliyev, N. I. (2025). Initiatives of Uzbekistan in the policy for the development of the transport system of Central Asia. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 7(10), 47-49.
10. Sobirov Javohirkhon Alloyorkhonovich. (2025). Uzbekistan's Good-Neighborhood Policy In Ensuring Regional Stability In Central Asia. *Emerging Frontiers Library for The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 7(12), 127–129. Retrieved from <https://emergingsociety.org/index.php/efltajpslc/article/view/665>
11. Saidov, S. Sh. (2024). Integration in Central Asia: Problems and prospects for unity. *Scientists.uz*, 11, 11-16.
12. Saqib, N. U., & Naazer, M. A. (2023). Dynamics of regional integration in Central Asia: A case study of Belt and Road Initiative. *Journal of South Asian Studies*, 11(3), 253-266.

MUNDARIJA

Muqaddima	3
Kirish so'zi	5
QAXXOROVA M. Diniy bag'rikenglik - barqaror integratsiya poydevori	7
SABIROV K. Shanghai Cooperation Organization: 25 Years of Development and Public Diplomacy	12
SADIBAQOSEV H. Markaziy Osiyoda xavfsizlik: AQSH va Xitoy bilan hamkorlik aloqalari	20
ТУРСУНОВ Б. Марказий Осиё халқлари янги ва энг янги давр тарихи босқичларида	29
SEITOV A. "Proportional Brain Flow" in the Context of Digital Globalization	39
СУЛТАНОВА Э. Приверженность национальным и общечеловеческим ценностям - стратегический вектор политических коммуникаций государств Центральной Азии	46
СИРОЖОВ О. Марказий осие учун "юмшоқ интеграция" модели ва унинг моҳияти	58
РАВШАНОВ Ф., АЛИМАРДОНОВ Т. Марказий Осиё ва туркийлар интеграцияси: тарихий сабоқлар ва замонавий истиқбол	60
НУРИДДИНОВ Э. Геополитическая позиция стран Центральной Азии в условиях формирования многополярного мира	77
МЫРЗАИБРАИМОВ С. Роль исламской культуры Мавераннахр в религиозной жизни народов Центральной Азии	83
KALIEV A. Political and Cultural Dimensions of Integration in Central Asian States	94
TEMIRKHANOV B. The religious thought of the Jadids of Turkestan	104
БЕРДИЕВ Б. Международный имидж Центральной Азии и Узбекистана	112
ИСАМИТДИНОВ Ж. Эволюция приоритетных направлений сотрудничества Таджикистана и Узбекистана (2016-2026 гг.): от политической разрядки к стратегическому партнёрству	118
БАХАДИРОВ М. Многовекторная интеграция стран Центральной Азии в условиях глобальной фрагментации: стратегии, риски и ограничения	127

НАЗИРОВ М. Институционализация формата «Центральная Азия - Китай» как фактор трансформации евразийской региональной архитектуры	134
QOLQANOV N. Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining madaniy-gumanitar masalalari	148
SOBIROV J. Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	153
SAIPOV Z. C5+1 formati AQSHning ko'p tomonlama diplomatiyasining institutsionallashtirilgan vositasi sifatida	159
RAHMONOV B. Yoshlarga oid davlat siyosati va milliy ta'lim-tarbiya	171
RAJABOVA M. Markaziy Osiyoda "bag'rikenglik siyosati"ni rivojlantirish tendensiyalari	180
BERDIYEV B. Integratsiya va uning xalqaro imijga ta'siri	185
MUSTAFOYEV A. Malayziya va O'zbekistonda diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solishning huquqiy hamda institutsional mexanizmlari	191
AKRAMOV B. Markaziy Osiyo va Shanxay hamkorlik tashkiloti: iqtisodiy va siyosiy hamkorlikning zamonaviy tendensiyalari	202
ОЛИМОВ Д. «Новая Центральная Азия» в системе глобальных геополитических координат: политико-экономические детерминанты интеграции и роль технологического партнерства с США	210
ESHONQULOVA D. O'zbekistonning Islom hamkorlik tashkiloti bilan munosabatlarda siyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatlar: muammolar va imkoniyatlar	224
МАРАТОВА Х. Стратегические приоритеты и роль Узбекистана в многосторонней системе Центральной Азии C5+1	232
HASANOV R. Konstitutsiya taraqqiyotimizning kelajagidir	242
SAYDULLAYEV S. Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosiy faoliyatining shakllanish va rivojlanish tarixi	248
MAXAMATKARIMOV M. Markaziy Osiyoda davlat xizmatchisi va kadrlar tushunchasining shakllanish tarixi	257
ABDULLAYEV D. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligini kengaytirishda raqamli boshqaruv tajribasi va istiqbollari	265
XAYRULLAYEV Z. Markaziy Osiyoda islom dini g'oyalari radikallashtirishining ijtimoiy-siyosiy tendensiyalari	270

HAMIDOV B. Xitoy diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlari	280
ELMURODOV J. Markaziy Osiyo integratsiya jarayonlariga Qozog'iston va Tojikiston Respublikalari madaniy-gumanitar hamkorligining ta'siri	289
MA'MIROVA O. Davlat va mahalliy hokimiyat boshqaruv organlari tizimini nomarkazlashtirishning O'zbekiston tajribasi	299
ОТАЙБИ С. Основные направления деятельности Шанхайской организации сотрудничества	306
SHARIPOVA D. Mintaqaviy integratsiya jarayonlari borasidagi konseptual asoslar	313
ТИЛЛЯБАЕВА Г. Халқаро муносабатларда зиёрат феномени	320
ZOIROVA M. Yangi Markaziy Osiyo integratsiyasi sharoitida siyosiy tizim legitimligini mustahkamlashning zamonaviy texnologiyalari	324
NAIMJONOVA Z. Markaziy Osiyo mintaqasida migratsiya jarayonlarining geosiyosiy omillari va ularning mintaqaviy integratsiyaga ta'siri	333
CHORIYEVA D., BERDIYEV B. O'zbekistonning Markaziy Osiyo bilan transport-logistika integratsiyasi	341
AMONOVA Y., KARIMOV F. Eron bilan bog'liq geosiyosiy ziddiyatlar sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasining siyosiy-iqtisodiy holati	348
ERGASHOV Z., QOLQANOV N. Markaziy Osiyo global kuchlar kesishuvida: Rossiya-AQSH-Xitoy uchburchagi va integratsiya kelajagi	356
SADULLAYEVA L. O'zbekistonning Markaziy Osiyo bilan transport-logistika hamkorligi: BRI doirasida	363
OTABOYEVA M., QO'YSINOVA F. Markaziy Osiyo integratsiyasining madaniy-gumanitar asoslari (Turkiya tahliliy qarashlari prizmasida)	367
QUROLBOYEVA M. Parlament institutining shakllanishi va siyosiy qaror qabul qilishdagi evolyutsiyasi	375
NORBO'TAYEV I., NAZIROV M. Markaziy Osiyoda ilk integratsiya tajribasi: omillari va inqiroz sabablari	381

**YANGI MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASINING
SIYOSIY-IQTISODIY VA MADANIY-GUMANITAR JIHATLARI**

**xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari to'plami**

(Toshkent, 2026-yil 28-aprel)

Mas'ul muharrir:

B.Berdiyev

***To'plamda joy olgan maqola va tezislarda keltirilgan
ma'lumotlarga mualliflar mas'uldirlar.***

Bosishga ruxsat etildi: __.05.2026 y.

Bichimi 60x84 1/16. Shartli 24,3 b.t.

50 nusxada bosildi. Buyurtma № __

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi bosmaxonasi.

Toshkent sh., A.Qodiriy ko'ch., 11.